



OLIV TA'LIM TASHKILOTLARIDA O'QITISH XIZMATLARIG A OI D AROMADLARNI BAHOLASH VA ULARNI TAN OLI SHNING ILMIV METODOLOGIYASINI ISHLAB CHI QISH.

Abdujalilova Dilnoz Abdusattorovna
TDIU «Budget hisobi va g'aznachilik»
kafedrasi mustaqil izlanuvchisi
E-mail: dilnoz.abdujalilova.84@mail.ru
ORCID: 0009-0003-5169-4233

DEVELOPING A SCIENTIFIC METHODOLOGICAL FRAMEWORK FOR THE MEASUREMENT AND RECOGNITION OF REVENUE FROM EDUCATIONAL SERVICES IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS.

Abdujalilova Dilnoz Abdusattorovna
Independent Researcher of the «Budget
Accounting and Treasury»
Department of TSUE, Uzbekistan
E-mail: dilnoz.abdujalilova.84@mail.ru
ORCID: 0009-0003-5169-4233

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqolada oliy ta'lim tashkilotlarida o'qitish xizmatlarini ko'rsatish natijasida shakllanadigan daromadlarni baholash va ularni buxgalteriya hisobida tan olishning nazariy hamda amaliy jihatlarini kompleks tarzda tahlil qilingan. Tadqiqotda, avvalo, daromadlarni tan olishning asosiy mezonlari, jumladan, xizmat ko'rsatish darajasini aniqlash, iqtisodiy manfaatlarning kelib tushish ehtimoli va daromad summasini ishonchli baholash shartlari yoritilgan. Maqolada oliy ta'lim muassasalarida keng qo'llanilayotgan to'lov-kontrakt asosidagi tushumlarni hisobga olishning o'ziga xos xususiyatlari, ularning bosqichma-bosqich tan olinishi hamda hisobot davrlariga taqsimlanish mexanizmlari ochib berilgan. Shu bilan birga, budget hisobi standartlari bilan xalqaro standartlar xususan, IPSAS o'rtasidagi farqlar va

ularni uyg'unlashtirish zaruriyati asoslab berilgan.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, daromadlarni to'g'ri baholash va o'z vaqtida tan olish oliy ta'lim tashkilotlarining moliyaviy hisobotlari ishonchliligi, shaffofligi hamda boshqaruv qarorlarini qabul qilish samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etishi aniqlangan. Shuningdek, amaliyotda uchraydigan muammolar va ularni bartaraf etish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Abstract: This scientific article provides a comprehensive analysis of the theoretical and practical aspects of assessing revenues generated from the provision of educational services in higher education institutions, as well as their recognition in accounting. The study primarily examines the key criteria for revenue recognition, including the determination of the stage of service completion, the probability of inflow of economic

benefits, and the reliable measurement of revenue. The article also explores the specific features of accounting for revenues derived from tuition fees under contract-based arrangements, which are widely applied in higher education institutions, as well as the mechanisms of their progressive recognition and allocation across reporting periods. In addition, the differences between national public sector accounting standards and international standards, particularly IPSAS, are identified and the necessity of their harmonization is substantiated.

The findings indicate that accurate measurement and timely recognition of revenues play a crucial role in enhancing the reliability and transparency of financial reporting in higher education institutions, as well as in improving the effectiveness of managerial decision-making. Furthermore, existing practical challenges are identified and recommendations for their resolution are proposed.

Kalit soʻzlar: daromadlarni baholash, daromadlarni tan olish, moliyaviy hisobot, moliyaviy natija, toʻlov-kontrakt mablagʻlari, xalqaro standartlar IPSAS, oʻqitish xizmatlari.

Keywords: revenue measurement, revenue recognition, financial reporting, financial results, tuition fee revenues, international standards, IPSAS, educational services.

Kirish

Hozirgi globallashtirish sharoitida oliy taʼlim tizimining rivojlanishi nafaqat taʼlim sifatini oshirish, balki moliyaviy boshqaruvning samaradorligini taʼminlash bilan ham chambarchas bogʻliqdir. Oliy taʼlim tashkilotlari faoliyatida daromadlar, xususan, oʻqitish xizmatlaridan olinadigan tushumlar asosiy moliyaviy manbalardan biri hisoblanadi. Shu bois, ushbu daromadlarni toʻgʻri baholash va buxgalteriya hisobida oʻz vaqtida hamda

ishonchli tarzda tan olish masalasi dolzarb ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda oliy taʼlim muassasalarida toʻlov-kontrakt asosidagi taʼlim keng qoʻllanilmoqda va bu tizim orqali shakllanadigan daromadlar ulushining ortib borishi ularni hisobga olishning aniq mexanizmlarini ishlab chiqishni talab etadi. Amaliyotda ushbu daromadlarni tan olishda xizmat koʻrsatish darajasini aniqlash, daromadlarni hisobot davrlariga toʻgʻri taqsimlash, hamda ularni ishonchli baholash bilan bogʻliq qator muammolar mavjud.

Oʻzbekiston Respublikasining Budget kodeksining oʻn birinchi bobida budget tashkilotlarining budgetdan tashqari jamgʻarmalari daromadlari belgilab qoʻyilgan boʻlib, aynan 63-moddasida oliy va oʻrta maxsus, professional davlat taʼlim tashkilotlarida taʼlim olganlik uchun oʻqitish xizmatlaridan olinadigan tushumlar keltirib oʻtilgan [1].

“Oliy taʼlim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar samaradorligini oshirish, davlat oliy taʼlim muassasalarining moliyaviy barqarorligini taʼminlash, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash masalalarini mustaqil hal etish, ilmiy-tadqiqot faoliyatiga mablagʻlarni jalb etish imkoniyatini kengaytirish hamda oliy taʼlim muassasalari oʻrtasida raqobat muhitini rivojlantirish, xalqaro moliya tashkilotlarini jalb qilgan holda davlat oliy taʼlim muassasalarida bozor mexanizmlariga asoslangan biznes jarayonlarini joriy etish, ularni xususiylashtirish, ular faoliyatiga korporativ boshqaruvni joriy etish hamda toʻliq moliyaviy mustaqillik berish orqali taʼlim sifatini oshirish” daromadlar hisobini toʻgʻri yuritish, shakllantirilayotgan moliyaviy natijalarni ishonchliligini oshirish zaruriyatini keltirib chiqardi [2].

Oʻzbekiston Respublikasi oliy taʼlim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish

konsepsiyasida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Oliy ta'lim tashkilotlarida ta'lim jarayonini tashkil etish bilan bog'liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, qabul qilindi. Qarorga ko'ra 2020/2021 o'quv yilidan boshlab respublika oliy ta'lim tashkilotlarida o'quv jarayonini bosqichma-bosqich kredit-modul tizimiga o'tkazish tartibi joriy etildi. Bunda kredit-modul tizimi asosida hisoblangan daromadlarni hisobini olib boorish yanada murakkablashdi [3].

Shu bilan birga, milliy buxgalteriya hisobi tizimining xalqaro standartlar, xususan davlat sektori uchun mo'ljallangan IPSAS talablariga moslashtirilishi zarurati ham ortib bormoqda. Chunki xalqaro standartlar asosida daromadlarni tan olish va baholash moliyaviy hisobotlarning shaffofligini oshirish, ularning xalqaro darajada taqqoslanishini ta'minlash va investitsion jozibadorlikni kuchaytirishda muhim omil hisoblanadi [6].

Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi oliy ta'lim tashkilotlarida o'qitish xizmatlariga oid daromadlarni baholash va ularni buxgalteriya hisobida tan olishning nazariy asoslarini o'rganish, amaliyotdagi mavjud muammolarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Material va metod

Oliy ta'lim tashkilotlarida moliyalashtirish manbalarini nazariy asoslarini o'rganishda oliy ta'lim tashkilotlarining moliyalashtirish manbalari, oliy ta'lim tashkilotlarining budjetdan tashqari daromadlariga oid qator olimlar tomonidan tadqiqotlar olib borilgan. Olimlarning qarashlari, izlanishlari va ularning natijalari ular tomonidan

olib borilgan tadqiqot ob'yektiga xos ekanligini ko'rishimiz mumkin.

Xususan, Rossiyalik olimlardan N.N.Paradotskaya o'z ilmiy tadqiqotlarida oliy ta'lim tashkilotlarining moliyaviy masalalarini yoritilishiga katta ahamiyat qaratgan «Universitetda ichki nazoratning maqbul tizimi uning faoliyatining barcha sohalarida moliyaviy mablag'larning sarflanishi to'g'risida to'liq ma'lumot olishni o'z ichiga oladi» degan fikrida oliy ta'lim tashkilotlarida boshqaruv hisobining o'ziga xosligini ta'kidlab o'tgan [7].

Boshqa bir Rossiyalik tadqiqotchi N.R.Kelchevskaya oliy ta'lim tashkilotlarini moliyaviy resurslarini bozor sharoitida raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan ilmiy ishlar olib borgan. «Doimiy o'zgaruvchan iqtisodiy sharoitda universitet oliy ta'lim tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash uchun ta'lim tashkilotlari ta'lim xizmatlari bozorining holatini doimiy ravishda kuzatib borish, ushbu bozordagi mavqeini baholash kerak. Nodavlat oliy oquv yurtlarining paydo bo'lishi bu muammoni yanada dolzarb qiladi. Ta'lim biznesga aylandi, bu esa oliy ta'lim tizimida kuchli raqobatga olib keldi» deb nodavlat oliy ta'lim tashkilotlarini ko'plab ochilishi ta'lim tashkilotlari o'rtasidagi raqobatni yanada kuchaytirishi bu esa o'z navbatida ta'lim sifatini oshirilishini taqozo etishini ta'kidlab o'tgan [8].

Respublikamizda ham bu soxada ko'plab olimlar bir qator ilmiy tadqiqotlar olib borishgan. Shu jumladan, mamlakatimiz olimlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, S.U.Mehmonov "Budjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobini tashkil qilishning bir qator o'ziga xos hususiyatlari mavjud. Bular, avvalo budjet tashkilotining mulkchilik asosiga, davlat budjetini tuzish va ijro etish printsiplariga va

boshqa qator omilarga bevosita bog'liqdir", deb ta'kidlab o'tgan [9].

A.A.Ostonokulov "Budjet tashkilotlarida budjetdan tashqari mablag'larni shakllantirish, ularning hisobini tashkil etish va yuritish, moliyaviy hisobotlarni tuzish metodologik asoslari hamda ularni takomillashtirish" yuzasidan izlanishlar olib borgan. Ushbu izlanishlarda oliy ta'lim tashkilotlari tadqiqot ob'yekti sifatida o'rganilgan. Oliy ta'lim tashkilotlarida budjetdan tashqari mablag'larning shakllanish xususiyatlari va sarflanish yo'nalishlari tahlil qilinib, budjetdan tashqari mablag'lar bo'yicha daromadlar va xarajatlarni tan olish hamda hisobga olish, budjetdan tashqari mablag'lar harakatiga oid axborotlarni moliyaviy hisobotlarda aks ettirish, moliyaviy hisobotlarning axborot imkoniyatlarini oshirish masalalari tadqiq qilingan [10].

Natijalar

Mazkur tadqiqotda oliy ta'lim tashkilotlarining moliyaviy-xo'jalik faoliyati, xususan o'qitish xizmatlari bilan bog'liq daromadlar hisobini takomillashtirishning ilmiy va amaliy jihatlarini o'rganish uchun turli xil tadqiqot usullari qo'llanildi. Tadqiqot dizayni ko'p qirrali bo'lib, u deskriptiv va empirik yondashuvlarni, sifat va miqdoriy tahlil usullarini o'z ichiga oladi. Ushbu usullar yordamida daromadlarni baholash va ularni tan olishning hozirgi holatini va ularni xalqaro standartlariga moslashtirish jarayonini chuqur tahlil qilish imkoniyati yaratildi. Bundan tashqari ushbu tadqiqotda miqdoriy va sifat tahlil usullaridan

birgalikda foydalanildi. Miqdoriy tahlil yordamida oliy ta'lim tashkilotlarining daromadlari ko'rsatkichlarning dinamikasi, ularning o'zgarishlari va budjet hisobi standartlarini xalqaro standartlarga uyg'unlashtirish natijalari tahlil qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Budjet kodeksining 63-moddasi "Budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari mablag'larini undiriladigan to'lovlar hisobidan shakllantirish" deb nomlanib, oliy va o'rta maxsus, professional davlat ta'lim tashkilotlarida ta'lim olganlik uchun undiriladigan to'lovlar, ya'ni o'qitish xizmatlari uchun to'lanadigan to'lov-kontrakt summalari hisobidan oliy ta'lim tashkilotlarining tushumlari hamda daromadlari shakllantirilishi belgilab qo'yilgan. "Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida o'qitishning to'lov-kontrakt shakli va undan tushgan mablag'larni taqsimlash tartibi to'g'risidagi nizom asosida oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalarida o'qitish xizmatlari mablag'lari bo'yicha shartnomani rasmiylashtirish, o'qitishning kontrakt shaklidan tushgan mablag'lar va ular sarflanishining buxgalteriya hisobi qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda yuritiladi [4].

Quyida Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tasarrufidagi moliyaviy mustaqillik berilgan davlat oliy ta'lim tashkilotining to'lov-kontrakt shaxsiy g'azna hisob raqamiga kelib tushgan so'nggi besh yillik tushumlari (daromadlari) tahlil etiladi (1-jadval).

1-jadval.

Moliyaviy mustaqillik berilgan davlat oliy ta'lim tashkilotining 2021-2025 yillarda o'qitish xizmatlari uchun to'langan to'lov-kontrakt mablag'lari tushumlari¹.

ming so'm.

№	Nomlanishi	2021	2022	2023	2024	2025
1	O'quv yilining I semestri uchun tushum	18 845 408,30	32 088 377,00	33 178 909,50	52 957 548,40	49 383 058,00
2	O'quv yilining II semestri uchun tushum	25 272 449,70	27 240 523,90	37 390 609,00	28 649 316,80	43 581 331,80
3	Boshqa tushumlar	675 758,90	878 876,70	2 990 994,40	6 593 922,90	11 989 898,60
4	Qo'shma ta'lim tushumlari	2 911 100,20	4 969 862,40	4 604 914,50	3 769 619,30	1 767 143,50
JAMI:		47 704 717,10	65 177 640,00	78 165 427,40	91 970 407,40	106 721 431,90

Mazkur jadval ma'lumotlari tahlili shuni ko'rsatadiki, oliy ta'lim tashkilotining to'lov-kontrakt tushumlari so'nggi besh yilda barqaror o'sish tendensiyasiga ega bo'lib, umumiy daromadlar hajmi 2021-yildagi 47,7 mlrd so'mdan 2025-yilda 106,7 mlrd so'mga yetgan. Bu esa qisqa davr ichida daromadlarning qariyb 2,2 barobarga oshganini anglatadi. Ushbu holat oliy ta'lim tashkilotlariga berilgan moliyaviy mustaqillik sharoitida ularning daromad bazasini kengaytirish, to'lov-kontrakt tizimini takomillashtirish hamda talabalar sonining ortishi bilan izohlanadi. Ayniqsa, 2022-2024-yillar oralig'ida tushumlarning izchil o'sib borishi moliyaviy boshqaruv samaradorligi ortganini ko'rsatadi.

Daromadlar tarkibi bo'yicha tahlil qilinganda asosiy ulushni o'quv yilining I va II semestrlari uchun undiriladigan to'lov-kontrakt tushumlari tashkil etadi. I semestr tushumlari 2021-2024-yillarda sezilarli darajada oshgan bo'lsa-da, 2025-yilda biroz pasayish kuzatilgan. Biroq bu pasayish II semestr tushumlarining

keskin oshishi hisobiga qoplangan. Mazkur holat tushumlarning vaqt bo'yicha qayta taqsimlanganini, ya'ni to'lov intizomi va muddatlaridagi o'zgarishlar mavjudligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, 2024-yilda II semestr tushumlarining qisqarishi va 2025-yilda keskin o'sishi moliyaviy oqimlarning notekisligini bildiradi, bu esa budget rejalashtirish jarayonida qo'shimcha ehtiyot choralari talab etadi.

Alohida e'tibor qaratish lozim bo'lgan jihat - boshqa tushumlar va qo'shimcha ta'lim xizmatlaridan olinadigan daromadlardir. Xususan, "boshqa tushumlar"ning 2021-yildagi 0,6 mlrd so'mdan 2025-yilda qariyb 12 mlrd so'mga yetishi o'quv jarayonini bosqichma-bosqich kredit-modul tizimiga o'tkazish tartibi joriy etilganligini ko'rsatishimiz mumkin.

Aksincha, qo'shimcha ta'lim tushumlarida 2022-yildan boshlab pasayish tendensiyasi kuzatiladi, bu esa mazkur yo'nalishga bo'lgan talabning kamayishi yoki strategik e'tiborning asosiy ta'lim xizmatlariga qaratilganini anglatishi mumkin.

¹ Muallif tomonidan tayyorlandi.

Umuman olganda, keltirilgan ko'rsatkichlar oliy ta'lim tashkilotlarida moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda to'lov-kontrakt tushumlari hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini hamda daromad manbalarini kengaytirish zarurligini tasdiqlaydi. Bu esa, ushbu tushumlarni budjet hisobida daromad sifatida baholanishi ularni daromad deb etirof etilishi hamda daromadni tan olish mezonlarini ishlab chiqishni taqozo etadi.

Oliy ta'lim tashkilotlari buxgalteriya hisobida daromadlar tarkibidagi o'qitishning to'lov-kontrakt shaklidan tushadigan daromadlarning hisoblanishi 520 150 "Oliy va o'rta maxsus, professional ta'lim tashkilotlarida o'qitishning to'lov-kontrakt mablag'lari bo'yicha

hisoblangan daromadlar" subschyotida aks ettiriladi.

O'qitishning to'lov-kontrakt shakli bo'yicha mablag'larning hisoblanishi 153 600 "Budjet tashkilotlarining talabalar bilan boshqa debitor qarzlari" subschyotining debetida va 520 150 "Oliy va o'rta maxsus, professional ta'lim tashkilotlarida o'qitishning to'lov-kontrakt mablag'lari bo'yicha hisoblangan daromadlar" subschyotining kreditida, mablag'larning kelib tushishi esa 102 409 "Davlat ta'lim tashkilotlarida o'qitishning to'lov-kontrakt shaklidan tushumlar" subschyotining debetida va 153 600 "Budjet tashkilotlarining talabalar bilan boshqa debitor qarzlari" subschyotining kreditida aks ettiriladi hamda quyidagicha buxgalteriya o'tkazmalari orqali amalga oshiriladi [5] (2-jadval).

2-jadval.

Oliy ta'lim tashkilotlarida o'qitish xizmatlari bo'yicha hisoblangan daromadlarning buxgalteriya muomalalarida aks ettirilishi².

№	Buxgalteriya muomalalarining mazmuni	Debet	Kredit
1	O'qitishning to'lov-kontrakt shakli bo'yicha mablag'larning hisoblandi	153 600	520 150
2	O'qitishning to'lov-kontrakt shakli bo'yicha mablag'lar shaxsiy g'azna hisob raqamiga tushdi	102 409	153 600
3	Talabalarga stipendiya to'landi	343 500	102 409
4	Ortiqcha to'langan to'lov-kontrakt mablag'lari qaytarildi	343 600	102 409
5	Yil mobaynida hisoblangan o'qitishning to'lov-kontrakt mablag'lari bo'yicha daromadlar hisobdan chiqarildi	520 150	983 000

Oliy ta'lim tashkilotlarida daromadlarni baholash va tan olish jarayoni budjet hisobi tamoyillari hamda standartlari talablariga muvofiq amalga oshiriladi. Daromadlarni baholashda ularning haqiqiy qiymati yoki

shartnoma qiymati asos qilib olinadi. Xususan, talabalar bilan tuzilgan to'lov-kontrakt summalari daromadni aniqlashning asosiy manbai hisoblanadi. Shu bilan birga, agar mablag'larni qaytarish ehtimoli mavjud bo'lsa, ular albatta

²Muallif tomonidan tayyorlandi.

hisobga olinishi zarur. Natijada daromadlar sof qiymatda aks ettiriladi, bu esa moliyaviy hisobotlarning aniqligi va ishonchliligini ta'minlaydi.

Daromadlarni tan olishda asosiy yondashuv hisoblash metodiga asoslanadi. Ushbu usulga ko'ra daromad pul mablag'lari kelib tushgan paytda emas, balki xizmat ko'rsatilgan davrga mos ravishda tan olinishi zarur. Masalan, agar to'lov-kontrakt bir o'quv yiliga tuzilgan bo'lsa, daromad ushbu davr davomida oyma-oy yoki semestrlar kesimida e'tirof etiladi. Bundan tashqari, daromad faqat majburiyat bajarilganda, ya'ni ta'lim xizmati amalda ko'rsatilganda tan olinadi. Agar xizmat hali ko'rsatilmagan bo'lsa, tushgan mablag'lar daromad sifatida emas, balki oldindan olingan daromad, ya'ni majburiyat sifatida e'tirof etiladi. Shu bilan birga, daromadni tan olish uchun uning summasi aniq o'lchanishi hamda iqtisodiy foydaning kelib tushishi ehtimoli yuqori bo'lishi zarur.

Daromadlarning budget hisobida aks ettirilishi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Daromad hisoblanganda debitor qarzlari va daromadlar hisobvaraqlari o'zaro bog'liq holda aks ettiriladi, ya'ni debitor qarz ortadi va daromad e'tirof etiladi. Pul mablag'lari kelib tushganda esa pul mablag'lari ko'payadi va debitor qarz kamayadi. Bu jarayon daromad va pul oqimining bir vaqtga to'g'ri kelmasligini ko'rsatadi.

Umuman olganda, oliy ta'lim tashkilotlarida daromadlar shartnoma qiymatida baholanadi, hisoblash usuli asosida tan olinadi va xizmat ko'rsatilgan davrga mutanosib ravishda e'tirof etiladi. Mazkur yondashuv moliyaviy hisobotlarning shaffofligi, aniqligi va ishonchliligini ta'minlashga xizmat qiladi. Bularning barchasi budget hisobini tartibga soluvchi tegishli normativ-huquqiy xujjatlar bilan amalga oshirilishi zarur.

Daromadlarni baholash va ularni e'tirof etish bilan bog'liq jarayonlarni xorijiy tajribalar asosida o'rganadigan bo'lsak, davlat sektorida moliyaviy hisobot va buxgalteriya hisobini xalqaro darajada tartibga solishda eng muhim standartlar guruhi bu IPSAS (International Public Sector Accounting Standards hisoblanadi). IPSASlar aynan davlat sektori subyektlari uchun ishlab chiqiladi va ularni IPSASB e'lon qiladi.

Bugungi kunda amaliyotda o'n sakkizta budget hisobi standartlari qabul qilingan bo'lib, aynan daromadlar hisobini tartibga soluvchi standart mavjud emas. Bu esa, davlat sektori tashkilotlarida daromadlar hisobini yuritish jumladan, daromadlarni baholash, ularni tan olish, tan olish bilan bog'liq mezonlarni aniqlash hamda shakllantirilayotgan moliyaviy hisobotlarda qator noaniqliklar kelib chiqishiga sabab bo'lmoqda.

Hozirgi kunga qadar qabul qilingan barcha budget hisobi standartlari tegishli yo'nalishlar bo'yicha buxgalteriya hisobini tartibga soluvchi asosiy normativ-huquqiy hujjatlar sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur standartlar davlat sektori tashkilotlarida hisob yuritishning yagona metodologik asoslarini belgilab berib, moliyaviy operatsiyalarni to'g'ri aks ettirish, ularni hujjatlashtirish hamda umumlashtirish tartibini aniq mezonlar asosida tartibga soladi. Natijada, davlat tashkilotlarida olib borilayotgan buxgalteriya hisobi ishlari aynan ushbu standartlarda belgilangan talablar va tamoyillarga muvofiq tashkil etilib, yagona yondashuv asosida yuritilishi ta'minlanadi.

Shuningdek, budget hisobi standartlarining amaliyotga joriy etilishi hisob jarayonining shaffofligini oshirish, moliyaviy intizomni mustahkamlash hamda hisob ma'lumotlarining aniqligi va taqqoslanuvchanligini ta'minlashga xizmat qiladi. Standartlarda belgilangan normalar

asosida shakllantirilayotgan moliyaviy axborotlar foydalanuvchilar, jumladan davlat organlari, nazorat tashkilotlari va boshqa manfaatdor tomonlar uchun ishonchli hamda haqqoniy ma'lumotlar manbai bo'lib xizmat qiladi. Shu jihatdan, budget hisobi standartlari nafaqat hisob yuritish jarayonini tartibga soladi, balki davlat moliyaviy boshqaruvi samaradorligini oshirishda ham muhim omil hisoblanadi.

Umuman olganda, mazkur standartlar asosida yuritilayotgan buxgalteriya hisobi tizimi moliyaviy natijalarni to'g'ri aks ettirish, hisobotlarning sifatini oshirish va ularning xalqaro talablar bilan uyg'unlashuvini ta'minlash orqali davlat sektori faoliyatining ochiqligi va ishonchliligini yanada kuchaytiradi.

Shu boisdan, davlat sektori buxgalteriya hisobida daromadlar hisobini alohida tartibga soluvchi budget hisobi standartini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Mazkur standartning qabul qilinishi daromadlarni tan olish, baholash va hisobda aks ettirish jarayonlarini yagona metodologik asosda tashkil etishga xizmat qiladi. Bu esa, o'z navbatida, daromadlar hisobining shaffofligini ta'minlash, ularni noto'g'ri e'tirof etish bilan bog'liq xatoliklarni kamaytirish hamda moliyaviy hisobotlarning ishonchliligini oshirish imkonini beradi.

Bundan tashqari, daromadlar hisobiga oid maxsus standartning ishlab chiqilishi va amaliyotga joriy etilishi davlat sektori tashkilotlarida daromad manbalarini to'g'ri tasniflash, ularni tegishli davrlar bo'yicha e'tirof etish va nazorat qilish mexanizmlarini takomillashtirishga zamin yaratadi. Shu bilan birga, ushbu standart xalqaro amaliyot, xususan IPSAS talablariga yaqinlashishni ta'minlab, budget hisobi tizimining rivojlanishiga va uning

xalqaro standartlar bilan uyg'unlashuviga xizmat qiladi.

Umuman olganda, daromadlar hisobini tartibga soluvchi budget hisobi standartining qabul qilinishi davlat moliyaviy boshqaruv tizimini modernizatsiya qilish, budget intizomini mustahkamlash hamda iqtisodiy axborotlarning sifatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa

Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, davlat sektori buxgalteriya hisobida budget hisobi standartlari muhim normativ-huquqiy asos sifatida hisob yuritishning yagona metodologiyasini ta'minlab, moliyaviy axborotlarning aniqligi, shaffofligi va ishonchliligini oshirishga xizmat qilmoqda. Oliy ta'lim tashkilotlarida daromadlar, xususan to'lov-kontrakt tushumlarini baholash va tan olish jarayonlari hisoblash usuli asosida amalga oshirilishi ularning real moliyaviy holatini to'liq va haqqoniy aks ettirish imkonini berishi zarur.

Shu bilan birga, mavjud amaliyot daromadlar hisobini alohida va tizimli ravishda tartibga soluvchi maxsus budget hisobi standartini ishlab chiqish, qabul qilish va amaliyotga joriy etish taklif etiladi. Bunday standart daromadlarni baholash, tan olish va hisobda aks ettirish jarayonlarini yagona mezonlar asosida tartibga solib, moliyaviy hisobotlarning sifatini oshirish, budget intizomini mustahkamlash hamda xalqaro standartlar, xususan IPSAS bilan uyg'unlashuvni ta'minlashga xizmat qiladi.

Davlat sektorida daromalarni baholash ularni tan olish bilan bog'liq jarayonlarni tartibga soluvchi yangi ishlab chiqilishi taklif etilayotgan standart «Daromadlar» deb nomlanishi maqsadga muvofiq. Ushbu yangi standartning strukturasi quyidagicha bo'lishi lozim deb hisoblaymiz (1-rasm).

Umumiy qoidalar - mazkur bo'limda standartning maqsadi, vazifasi, qo'llanish sohasi

va asosiy tushunchalari aniq belgilanishi lozim. Avvalo, standart nima maqsadda qabul qilinayotgani, ya'ni davlat sektori tashkilotlarida daromadlarni yagona mezon asosida tan olish, baholash, hisobga olish va moliyaviy hisobotda aks ettirish tartibini belgilash uchun xizmat qilishi ko'rsatib o'tiladi. Shuningdek, standartning qaysi tashkilotlarga tatbiq etilishi, ya'ni budget tashkilotlari, budget mablag'lari oluvchilar, davlat maqsadli jamg'armalari, budgetdan tashqari mablag'lar bilan ishlovchi subyektlar uchun amal qilishi ham bayon etiladi.

Ushbu bo'limda "daromad", "almashinuv operatsiyasi", "almashinuvsiz operatsiya", "haqiqiy qiymat", "tan olish", "baholash", "hisobot davri", "majburiyat", "oldindan olingan daromad" kabi atamalarning mazmuni ham ochib berilishi zarur. Bundan tashqari, standartning boshqa budget hisobi standartlari bilan o'zaro bog'liqligi, agar ayrim daromad turlari boshqa maxsus standartlar bilan tartibga solinsa, bu holatlar ham qayd etilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.



1-rasm. Ishlab chiqilishi taklif etilayotgan yangi «Daromadlar» nomli budget hisobi standartining strukturisi³.

Daromadni hisobga olish tartibi - bu bo'lim daromadlarning buxgalteriya hisobida qachon, qanday asosda va qaysi schyotlarda aks ettirilishini belgilab berishi kerak. Eng avvalo, daromadlarni hisobga olishda qo'llaniladigan asosiy tamoyillar, xususan, hisoblash usuli,

davriylik tamoyili, ehtiyotkorlik tamoyili, ishonchlilik va taqqoslanuvchanlik talablari yoritilishi lozim. Daromadning pul mablag'i tushgan paytda emas, balki iqtisodiy mazmuniga ko'ra, xizmat ko'rsatilgan yoki tovar topshirilgan davrda tan olinishi alohida ko'rsatib o'tilishi

³Olib borilgan ilmiy izlanishlar asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

zarur. Shuningdek, daromadlarni birlamchi hujjatlar asosida rasmiylashtirish, debitor qarzdorlik bilan bog'liqligi, oldindan to'lov olinganda uni darhol daromad sifatida emas, balki majburiyat sifatida e'tirof etish tartibi ham shu yerda belgilanishi kerak. Shu bilan birga, turli daromad turlariga oid namunaviy buxgalteriya o'tkazmalari, schyotlar korrespondensiyasi, analitik va sintetik hisobni yuritish qoidalari keltirilsa, standart amaliy jihatdan yanada qulay bo'ladi.

Daromadni baholash tartibi - mazkur bo'limda daromadlarning qaysi qiymatda baholanishi va bu baholash qanday usullar asosida amalga oshirilishi ko'rsatilishi kerak. Asosiy qoida sifatida daromadlar odatda haqiqiy qiymatda yoki shartnoma qiymatida baholanishi belgilanishi lozim. Agar daromad to'lov-kontrakt, shartnoma, xizmat ko'rsatish dalolatnomasi yoki boshqa huquqiy asosga ega bo'lsa, baholash ana shu hujjatlardagi qiymat asosida amalga oshiriladi. Bundan tashqari, qaytarish ehtimoli, kechiktirilgan to'lovlar, valyutadagi operatsiyalar, natura shaklidagi tushumlar, homiylik mablag'larining baholanish xususiyatlari ham ochib berilishi zarur. Ya'ni daromadning yalpi emas, balki sof qiymatda aks ettirilishi, kerak bo'lganda qayta baholash yoki tuzatishlar kiritish mexanizmlari ham belgilanishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Xizmatlar ko'rsatish (ishlarni bajarish)dan olingan daromadlar - ushbu bo'lim xizmat ko'rsatish bilan bog'liq daromadlarni tan olishning o'ziga xos jihatlarini qamrab olishi kerak. Chunki xizmat ko'rsatish natijasi ko'pincha ma'lum bir davr davomida shakllanadi. Shu sababli bu bo'limda daromadni xizmat ko'rsatish darajasiga mutanosib ravishda tan olish tartibi yoritilishi lozim. Masalan, ta'lim xizmatlari, tibbiy xizmatlar, maslahat xizmatlari, ijara bilan bog'liq xizmatlar, qayta tayyorlash

kurslari, malaka oshirish, ilmiy-amaliy xizmatlar bo'yicha daromadni qaysi davrda e'tirof etish ko'rsatib beriladi. Ayniqsa, oliy ta'lim tashkilotlari uchun to'lov-kontrakt daromadlarini bir vaqtning o'zida emas, balki o'quv davri davomida bosqichma-bosqich tan olish mezonlari kiritilishi muhimdir. Agar mablag' oldindan tushgan bo'lsa, lekin xizmat hali to'liq ko'rsatilmagan bo'lsa, bunday tushum oldindan olingan daromad sifatida majburiyatda hisobga olinishi, xizmat ko'rsatilgan qismi esa daromadga o'tkazilishi kerakligi ham shu bo'limda belgilanishi lozim.

Tovarlarni sotishdan olingan daromadlar - bu bo'lim tovarlar realizatsiyasi bilan bog'liq daromadlarning tan olinishi va hisobga olinishi qoidalarini qamrab oladi. Tovarlarni sotishdan olingan daromad, odatda, mulk huquqi, nazorat yoki xavf-xatarlar xaridorga o'tgan paytda tan olinishi kerakligi ko'rsatiladi. Ya'ni faqat shartnoma mavjudligi yetarli emas, balki tovar amalda topshirilgan, qabul qilingan yoki sotuv shartlari bajarilgan bo'lishi talab qilinadi. Mazkur bo'limda budjet tashkilotlari tomonidan sotilishi mumkin bo'lgan mahsulotlar yoki tovar-moddiy boyliklar, masalan, ortiqcha inventar, yordamchi xo'jalik mahsulotlari, nashriyot mahsulotlari, o'quv-uslubiy materiallar yoki boshqa realizatsiya qilinadigan aktivlar bo'yicha daromadlarni tan olish qoidalari keltirilishi lozim. Shu bilan birga, qaytarib berilgan tovarlar, chegirmalar, sotuv bilan bog'liq xarajatlar, kechiktirilgan to'lov asosida sotish holatlari ham baholash va tan olish nuqtai nazaridan tartibga solinishi kerak.

Homiylik, beg'araz va markazlashgan tartibda olingan mablag'lar -mazkur bo'lim davlat sektorida eng muhim va murakkab bo'limlardan biri hisoblanadi. Chunki bu yerda daromadlar ko'pincha almashinuvsiz operatsiyalar asosida yuzaga keladi. Shu sababli

homiyluk mablag'lari, beg'araz yordam, markazlashgan tartibda ajratilgan mablag'lar, yuqori tashkilotdan olingan mablag'lar yoki natura ko'rinishidagi boyliklar qachon va qaysi shartlarda daromad sifatida tan olinishi aniq belgilanishi kerak. Bu bo'limda mablag'lar shartli va shartsiz tarzda kelib tushgan holatlar ajratilishi maqsadga muvofiq. Agar homiyluk yoki grant mablag'i muayyan maqsadli shartlar bilan berilgan bo'lsa, ularning daromad sifatida tan olinishi ushbu shartlar bajarilishiga bog'liq bo'lishi lozim. Agar shartlar hali bajarilmagan bo'lsa, mablag' majburiyat sifatida aks ettiriladi. Markazlashgan tartibda olingan aktivlar yoki mablag'lar bo'yicha ham ularning baholanishi, hujjatlashtirilishi, tashkilot balansida aks ettirilishi hamda daromad sifatida e'tirof etilish mezonlari ko'rsatib berilishi zarur.

Ma'lumotlarni yoritib berish - ushbu bo'lim moliyaviy hisobotlarda daromadlarga oid ma'lumotlarni qanday ochib berish kerakligini belgilaydi. Ya'ni foydalanuvchilar daromadlarning tarkibi, manbalari, shakllanish tartibi va ular bilan bog'liq tavakkalchiliklar haqida yetarli axborot olishi uchun qanday ma'lumotlar ochiq qilinishi kerakligi aniq ko'rsatilishi lozim. Masalan, daromadlarning asosiy turlari bo'yicha tasnifi, hisobot davrida tan olingan summalar, oldindan olingan daromadlar qoldig'i, debitor qarzdorlik bilan bog'liq ma'lumotlar, homiyluk mablag'lari bo'yicha izohlar keltirilishi mumkin. Bundan tashqari, daromadlarni baholashda qo'llangan usullar, muhim professional mulohazalar, shartli daromadlar, kelgusida tushishi kutilayotgan, biroq hali tan olinmagan mablag'lar, qaytarish xavfi mavjud summalar va daromadlarni tan olishga ta'sir ko'rsatgan omillar ham tushuntirish xatida yoritilishi kerak. Bu hisobotlarning shaffofligini oshiradi va tashqi

foydalanuvchilarga to'g'ri xulosa chiqarish imkonini beradi.

Yakuniy qoida - mazkur bo'limda standartning kuchga kirish sanasi, tatbiq etish tartibi va o'tish davri qoidalari bayon qilinishi lozim. Ya'ni standart qachondan boshlab majburiy qo'llanilishi, u ilgari qo'llanilgan tartiblardan qanday farq qilishi, yangi qoidalarga o'tishda qanday choralar ko'rilishi aniq ko'rsatiladi. Zarur bo'lsa, standartni bosqichma-bosqich joriy etish, ayrim tashkilotlar uchun o'tish davri berish, schyotlar rejasiga tuzatishlar kiritish kabi masalalar ham shu yerda belgilanadi. Shuningdek, ushbu bo'limda standart talablari buzilgan taqdirda javobgarlik masalasi emas, balki uni qo'llash bo'yicha uslubiy tushuntirishlar, boshqa normativ-huquqiy hujjatlar bilan muvofiqlik, nizolar yuzaga kelganda qaysi hujjat ustuvor qo'llanilishi kabi jihatlar ko'rsatilishi mumkin. Yakuniy qoida standartning huquqiy va amaliy kuchini mustahkamlaydi.

Amaliyotda mavjud bo'lmagan, ishlab chiqilishi, qabul qilinishi va amaliyotga joriy etilishi taklif etilayotgan yangi "Daromadlar" nomli budget hisobi standarti daromadlarni tan olish, baholash, hisobga olish va moliyaviy hisobotda yoritib berishning to'liq tizimini yaratishga qaratilgan bo'lishi kerak. Mazkur bo'limlarning har biri aniq, tushunarli va amaliyotga yo'naltirilgan tarzda ishlab chiqilsa, davlat sektori tashkilotlarida daromadlar hisobi yagona metodologiya asosida yuritiladi. Bu esa davlat moliyaviy boshqaruv tizimini yanada takomillashtirish, daromad manbalaridan samarali foydalanish moliyaviy hisobotlarning ishonchiligi, taqqoslanuvchanligi va shaffofligini oshirishga, shuningdek milliy amaliyotni xalqaro standartlarga yaqinlashtirish orqali milliy iqtisodiyot barqarorligini ta'minlashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Budget kodeksini tasdiqlash to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasining 2013 yil 26 dekabrda O'RQ 360 sonli Qonuni
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Davlat oliy ta'lim muassasalariga moliyaviy mustaqillik berish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2021 yil 24 dekabrda 61-son qarori
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini tashkil etish bilan bog'liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 31.12.2020 yildagi 824-son qarori
4. O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining "Oliy va o'rta maxsus, professional ta'lim tashkilotlarida o'qitishning to'lov-kontrakt shakli va undan tushgan mablag'larni taqsimlash tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 26.02.2013 yilda ro'yxatdan o'tgan, ro'yxat raqami 2431-son buyrug'i
5. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirining "O'zbekiston Respublikasi budget hisobining standarti (2-sonli BHS) "Yagona schyotlar rejasi"ni tasdiqlash to'g'risida"gi 20.10.2018 yilda ro'yxatdan o'tgan, ro'yxat raqami 3078-son buyrug'i
6. Handbook of International Public Sector Accounting Pronouncements published as of January 31, 2025
7. Н.Н. Парадоцкая Особенности управленческого учета в организациях образования. Бухгалтерский учет в бюджетных и некоммерческих организациях 355 стр. -2014
8. Н.Р.Кельчевская Оценка экономической устойчивости государственного вуза. "Университетское управление: практика и анализ" научный журнал 2002
9. Mehmonov S.U. Byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi: nazariya va amaliyot.//Monografiya//. T.:Iqtisod-moliya.2016 yil. 13-bet. (136 bet)
10. A.A.Ostonoqulov. Byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari mablag'lari hisobi va hisoboti metodologiyasini takomillashtirish. T.: "VNESHINVESTPROM" nashriyoti, 2021., 208 b.